

“NOTIQLIK VA SUXANDONLIKDA ERKIN VOHIDOV IJODINING O’RNI”

Abdusamatova Umidaxon Alisherzoda

O’zbekiston Milliy Universiteti Jurnalistika fakulteti,

O’zbek tili filologiyasi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada O’zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov ijodining notiqlik va suxandonlikda tutgan o’rni, so’z va nutq haqidagi qarashlar, nutq qilish, deklomatsiya, ifodali o’qish hamda Erkin Vohidov ijodidagi rang-baranglik haqida yoritilgan.

Kalit so’zlar: Erkin Vohidov, so’z va nutq, nutq qayerdan chiqadi?, ifodali o’qish, badiiy o’qish, deklomatsiya, notiqlik va suxandonlik ilmi.

So’z va nutq dunyodagi eng qadrli narsa bo’lganligi uchun ham Alloh taolo bandalari bilan o’zining orasida ko’prik qilib aynan so’zni tanladi. Unga e’tiborli bo’lish qadim-qadimdan dolzarb vazifalardan biri sanalib kelinmoqda. Nutq qilish, notiqlik, voizlik, nutq san’ati, nutq madaniyati va mahorati qadim kasblardan birdur. Qadimdan nutq qiluvchilar xalq orasida qadrlanganlar. Hattoki so’z mulkining sultonini hisoblangan bobomiz Alisher Navoiy ham o’z g’azallarini Voiz Koshifiyga o’qitishni xush ko’rgan ekanlar.

Mulk sohibi bo‘lishdan ko‘ra, ko‘ngil sohibi bo‘lish sharofati haqida mumtoz adabiy merosimizda ibratomiz fikrlar bisyor. Inson dilini ovlash, unga mehr berish, samimiy tilaklar izhor etish ilinji sharq adabiyotida sharaflangan. Sababi, dunyoda bir ilm borki, bu adabiyotning bosh mavzusi bo‘lib kelgan. Bu insonshunoslikdir. Ushbu ilmning ibtidosi esa inson diliga yo‘l izlashdir. Ilm-u fan ham, ma’naviy madaniyat va san’at ham shu haqda bosh qotirib kelgan.

Eng avvalo, “Nutq qayerdan chiqadi?” degan savolga javob topib olishimiz lozim. Qaysi a’zo nutq qiladi? Ko’pchilik uni til, ovoz deyishadi. Aslida nutqni maydon va maskani qalbdir. U qachonki qalbdan chiqsa, qalblarga yetib boradi. Agar qalbdan chiqmasa qalbga ta’sir qilmaydi. Notiq tinglovchi bilan hisoblashishi kerak. Uni qalbiga, ruhiyatiga kirib bora olsagina u haqiqiy notiq bo’ladi. Nutq bevosita insonning psixologiyasiga bog’liq. Nutqda kim haqida, nima haqida, qanday vaziyat haqida gapirayotganimiz ham katta ahamiyatga ega. Nutq shunday narsaki u til sohibidan o’ta zukkolikni, zakovatni, fasohat, balog’atni talab qiladi. Nutq qilishda 3 ta assosiy yo’nalishlar mavjud. Bular:

Deklomatsiya

Ifodali o’qish

Badiiy o’qish

Deklomatsiya- katta maydonlarda, katta pafos bilan o’qib eshittirilish

Ifodali o’qish esa ohangga solmasdan, ruhiyati bilan yetqazib bera olish. She’rni ifodali o’qish uchun samimiy o’qish lozim. Matnni o’zlashtirish lozim. O’zlashtirish bu yodlab olish emas. Matnni o’zingizni qilib olish. Ya’ni uni tushunib, ruhiyatini anglab, tinglovchilarga ham aynan shu holatda yetqazib bera olishdir. Notiq kim? Uning o’rni qanday? Notiq bu - rahbar, qo’mondon, boshqaruvchi, ergashtiruvchi shaxsdir. Nutq qilayotganda ovoz salobati bilan bir qatorda ifodaviylik juda muhim. Sportchilar ma’lum bir natijaga erishish uchun har kuni mashq qiladilar. Notiq ham o’z sohasida yuqori natijalarga erishish uchun tinimsiz izlanishi, shug’ullanishi lozim. Ushbu mashqlarni esa Erkin Vohidov ijodidan boshlashningiz mumkin. Matn o’qiyotganingizda u yurakdan chiqishiga, samimiy o’qishga ahamiyat berishingiz lozim. Mohiyat, mazmun, vazifa o’zgaradi. Odamlarga ta’sir qilaman deb emas, so’zlarni yetqazib beraman deb maqsad qo’yib o’qish kerak.

Tilning boyligi, go’zalligi, nafosati ham undagi so’zlarning soni va jilosi bilan bog’liq. Uning boqiyligi esa undan foydalanuvchi millatning ma’naviyati va istiqboliga tegishli. Ko’ngil qulfi o’ziga xos-u mos ochqichni talab etarkan, uni tanlash topish va ochish esa kalit ushlagan, muloqotga kirishayotgan notiqning, targ’ibotchining didi, farosati va uquviga bog’liq. Ta’bir joiz bo’lsa, deylik siz me’morsiz. O’z zahirangizda mavjud bo’lgan so’zlardan foydalanib, fikr yetkazasiz va qabul qilasiz. Boshqacha aytganda, tafakkur imoratini bunyod etasiz. Shunday ekan, so’z ana shu imoratga qo’ylgan g’ishtdir. G’isht jips holda o’z o’rniga

hafsala bilan terilsa, imorat pishiq, mustahkam bo'ladi. Shunday ekan, har bir so'zning o'z o'rni, hajmi, o'lchovi, ko'rinishi, vazni, tarovati, hidi bor. Uni didi bor, nozik ta'b tafakkur sohiblari anglashadi, amalda qo'llay olishadi. So'z sahovati va latofatini idrok etgan adiblarimiz buning quadratidan foydalangan holda nasru nazm durdonalarini yaratishgan. Shu kabi yetuk ijodkorlarimizdan biri shubhasiz Erkin Vohidovdir.

O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artist, oliy toifadagi suxandon bo'lgan Shuhrat Qayumov "Notiqlik va suxandonlik" darslarida shunday degan edilar:

Siz notiqlik ilmini puhta egallamoqchi bo'lsangiz, avvalo, Erkin Vohidovning ijodini o'rganishdan boshlappingizni maslahat beraman. Chunki uning ijodidagi asarlar rangba-rang. Unda siz o'rganishingiz kerak bo'lgan narsalar talaygina. Erkin Vohidovning har bir she'rida turli holatlар, vaziyat, uslublarni topishingiz mumkun. Bu esa sizga matnlarni tushunib, holatini anglab, xarakteri bilan yetkazib bera olishni o'rganishingizga xizmat qiladi.

Erkin Vohidovning she'rlari shunchaki o'qilmaydi. Unda mazmun, mohiyat, badiiyat juda kuchli. Uning "Ikki jahoning sadqa qil" nomli she'rini olsak:

Yaxshilik qilma birovga ko'z uchun,
Yaxshilik asli birovmas, o'z uchun.
Rizqi ro'z berdim dema, odam axir
Kelmagay dunyoga rizqi ro'z uchun.
Ne olib ketgay bu olamdan kishi,
Bori savdo ikki gazlik bo'z uchun.
Gar jahonning shohidursan, zorsan,
Mehr atalgan malhamu dilso'z uchun.
Jon nadir, ikki jahonni sadqa qil
Do'st senga aytgan bir og'iz so'z uchun.

Naqadar sermazmun, hayotiy haqiqatlarni marvarid shodalari kabi qator tizib qo'yilganligi o'quvchini hayratlantirishi tabiiy. Yaxshilikni birovga ko'z-ko'z qilmang, u birov uchun emas, o'zingiz uchundir. Inson bu dunyodan kafan bilan ketadi xolos, mol-davlat uchun yashama, bizga keragi faqatgina mehr va shirin so'z deyilgan.

Uning kinoyali tarzda, istehzoga olinib yozilgan she'rlari ham bor. "Og'riqli savollar", "Uyatchanlik", "Davlat ishi", "Shaharmi bu, qishloqmi bu...", "Sen menga tegma", "Bizdan keyin hech bir avlod qayta qurmasin", "Xalq noiblariga" singari she'rlarida shoир-lirik qahramoni o'quvchiga to'g'ridan to'g'ri murojaat qiladi, unga og'riqli savollar berib, dilini qoniqtiradigan javob ololmay faryod chekadi. Ulardan "Og'riqli savollar" ni olaylik:

Choyxonada oshxo'rlikni baxt deb bilgan og'ayni,
Shu bir kunlik halovatni naqd deb bilgan og'ayni,
Qumursqadek tiriklikdan o'zga g'ami bo'lмаган,
Dil olami, ishq olami, ruh olami bo'lмаган,
Imonni ham, vijdonni ham qurban qilgan halqum deb,
Seni xayol qildimmi men kuyganimda xalqim deb?

Shoir ushbu she'rida dilining tub-tubidagi og'riqli savollariga javob izlagandek go'yo. Faqat o'zini o'ylovchi, vijdonsiz, xalqning pulini kemirib yashayotgan amaldorlarga kinoyali tarzda yozilgan shu kabi she'rlar ijodkorning xalqparvar, jasur va dovyurak inson ekanligidan darak beradi.

Erkin Vohidovning "Donishqishloq latifalari" dan bahramand bo'lмаган she'r ihlosmandi qolmagan bo'lsa kerak. Ushbu hazilomuz she'rlarda oddiy bir qishloq hayoti, sodda, samimiy insonlar turli holatlarda aks ettirilgan. Bizning Donishqishloqlig Matmusa qiziquvchan, shoshqaloqroq va shu bilan bir qatorda juda sodda inson. Hayotda uchrab turadigan turli vaziyatlar hazil tarzida Matmusaning hayotida aks etgan. Bir qarashda kulguli bo'lgan vaziyatlarga e'tibor berib qaralsa, jamiyatimizdagи turli illatlar aks etganini guvohi bo'lamic.

Xulosa qilib aytganda notiqlik ilmini chuqur egallash uchun ishni Erkin Vohidovning asarlari bilan tanishishdan boshlashimiz lozim. Undagi mazmun, mohiyat, kishilar xarakteri, holatlar, vaziyatlarni anglab, uni tinglovchining qalbiga yetqazib bera olsak notiqlik va suxandonlik ilmining yetuk mutaxassisi bo'lishga dastlabki katta qadamlarni tashlagan bo'lamic.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Tanlangan asarlar” – Erkin Vohidov (2019)
2. “O‘zbegin” - Erkin Vohidov (2017)
3. “Qiziquvchan Matmusa” (2018)
4. Notiq.uz sayti
5. RegistonTV.uz kanali